

# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

### INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Yo'ldashev Dilmurod Qurbonovich,

magistr, FarDU

[dilmurodfergana@gamil.com](mailto:dilmurodfergana@gamil.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda dolzarb bo'lgan mavzulardan biri “Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlari” haqida bo'lib, koreys tilini o'rgatish misolida, qanday zamonaviy metodlar asosida o'quvchilarni chet tillarini yanada tez va samarali o'rgatish haqida. Sotsiolog va pedagok sifatida ushbu maqola orqali o'z kuzatishlarim samarasini, qarashlarimni va innovatsion yondashuvlarni bayon qildim.

**Kalit so'zlar:** Prizedent farmoni, koreys tili, zamonaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar va metodlar, maxsus metodik yondashuv, interaktiv o'yinlar, og'zaki nutqni rivojlantirish.

**Abstract:** This article is about "Innovative approaches to teaching foreign languages", one of the most relevant topics today, and how modern methods can be used to teach students foreign languages more quickly and effectively, using the example of teaching Korean. As a sociologist and pedagogue, I have described the results of my observations, views and innovative approaches through this article.

**Key words:** Prizedent decree, Korean language, modern education, innovative technologies and methods, special methodical approach, interactive games, development of oral speech.

**Аннотация:** Данная статья посвящена одной из наиболее актуальных на сегодняшний день тем «Инновационные подходы к обучению иностранным языкам» и тому, как можно использовать современные методы для более быстрого и эффективного обучения студентов иностранным языкам на примере

преподавания корейского языка. Как социолог и педагог, я описал в этой статье результаты своих наблюдений, взглядов и инновационных подходов.

**Ключевые слова:** Указ лауреата, корейский язык, современное образование, инновационные технологии и методы, специальный методический подход, интерактивные игры, развитие устной речи.

**Kirish:** Avvalo shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq tashkiliy chora-tadbirlar samarali amalga oshirilmoqda va xorijiy tillarni o'rganish tobora ommalashib bormoqda. Til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari XXI asrda faqatgina bitta tilni bilish bu zamondan orqada qolishga sabab bo'ladi. Chunki har soniyada yangilanib borayotgan dunyoni anglash uchun u bilan hamnafas bo'lishga majburmiz. Ammo har qanday chet tilini o'rganish uchun kuchli hohishning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun mohir ustoz ham zarur. Lekin ta'lim tizimiga nazar solsak natijalar ayanchli. Ta'lim tizimida 2 mingdan ziyod chet tili o'qituvchisi vakant bo'lib qolmoqda. 400 ta maktabdagi 1 millionga yaqin chet tili o'qituvchilar malaka oshirmagan. Bu sohada mutaxasis o'qituvchilarning atigi 4 % milliy yoki xalqaro til sertifikatiga ega holos. Maktablardagi o'qituvchilarning 49 % testdan o'ta olmagan. [3, 4b] Bunday sharoitda biz o'quvchilarga qoniqarli darajada chet tillarini o'rgata olmaymiz. Avvalo sifatli kadrlar, mahoratli pedagoklarni yetishtiribgina biz ko'zlagan natijaga erisha olamiz. Buning uchun esa OTM larning chet tillarini o'rgatish fakultetlari sonini yanada ko'paytirish va shu bilan birga ularga ta'lim berishning zamonaviy metodlarini o'rgatish eng muhim masaladir. Masalan, mashg'ulot davomida o'zi o'rganayotgan chet tilidagi video rolikni ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba'zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish

ko'nikmalarini o'stirishida ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, elektron doska, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydanishimiz mumkin [6.5b]. Bundan tashqari dars davomida zamonaviy metodlar ham talaba va o'quvchilarning chet tilini o'rganishda ancha yengilliklar yaratadi. Shu o'rinda "klaster", "baliq skeleti", "venn diagrammasi", "rolli o'yinlar", "aqliy hujum", "savol-javob" kabi metodlarni aytib o'tishimiz lozim [5. 20b]. Bundan tashqari chet tillari o'rgatishda o'quvchilar, o'qituvchilar va o'quv materiallarining roli ham turlicha bo'ladi. Masalan, o'quvchilar an'anaviy darslardan farqli ravishda passiv roldan aktiv rolga o'tishlari kerak bo'ladi. O'z navbatida o'qituvchi esa muloqot jarayonini faollashtiruvchi va bilimni yetkazuvchi rolini bajarishi kerak. O'quv qo'llanmalarning roli esa mashg'ulotlarda o'zaro harakatlar va tildan foydalanishni rag'batlanirish bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tilshunos tomonidan nazariy jihatdan yaxshi tuzilgan darslik emas, balki atrofdagi haqiqiy tilning ko'rinishini ko'rsata olgan darslik yaxshi darslikdir [4. 31b]. Sinfda o'tkaziladigan hamma narsa chet tilida muloqot qilishni rivojlantirish niyatida amalga oshiriladi. Shunday ekan turli o'yinlar, rolli o'yinlar va muammoli vazifalarni hal qilish kabi kommunikativ harakatlar orqali o'quvchilar tildan ko'p foydalanadilar. Darsda o'rgangan so'z va iboralarni vaziyatga qarab qo'llay boshlaydi. Natijada biz ham o'z maqsadimizga yanada tezroq erishamiz. Mashg'ulotlarni juftlik, kichik guruhlar, butun sinf bilan bajarish mumkin. Real til hayotiga oid materiallardan foydalanish, o'qituvchi-o'quvchi va o'quvchi-o'quvchi o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi [5.20b]. Baholash usuli sifatida muloqot ko'nikmalarini qanchalik shakllanganligiga qarab kompleks baholash usuli qo'llanishi mumkin. Muloqotga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi mumkin:

1. Sinfda o'rganiladigan til real hayotda ishlatiladigan tilga asoslanishi kerak.
2. Tezkorlikka urg'u berilib, o'quvchilarning xato qilishlariga ruxsat beriladi.
3. Mavzu va vaziyat bo'yicha modulli ta'limni tashkil qilinishi kerak.
4. Interfaol vaziyatlarda gapirish, tinglash, o'qish va yozish kabi til ko'nikmalaridan foydalanish kerak.

5. O'quvchilarga boshqa o'quvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak.

Yuqoridagi usul va tamoyillar oqilona foydalana olgan pedgoklar o'z o'quvchilarida muloqot faoliyati (communicative activities) ni juda yaxshi rivojlantira oladilar. Misol uchun, koreyscha so'zlarni ma'nosini anglab, gramatik qoidalarni tushunib tursada, koreyscha gapira olmaydigan o'quvchini koreys tilida muloqot qobilyatiga ega deyish mumkinmi? Albatta yo'q. Buning uchun sinfdagi mashg'ulotlar sinfdan tashqarida real dunyoda uchrashi mumkin bo'lgan kontekstlar, vaziyatlar va funksiyalarni hisobga olgan holda tilning haqiqiy qo'llanilishiga yo'naltirilishi kerak. Bundan tashqari, juftlikda, kichik guruhlarda va butun sinf ishtirokidagi mashqlarni ko'paytirish kerak (interaction). Chet tili darslari o'quvchilar real muloqot sharoitida duch kelishi mumkin bo'lgan vazifalarga e'tibor qaratgan holda o'tkazilishi kerak. Vazifani bajarish muloqot davomida shaklga emas, balki ma'noga e'tibor qaratish imkonini berib, o'quvchilarda avtomatizatsiyani rivojlantiradi va shu tariqa til o'zlashtirishni yengillashtiradi. O'quvchilar haqiqai muloqotga yaqin bo'lgan topshiriqlarni bajarishi uchun vazifalar puxta ishlab chiqilishi va tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari chet tillarini tashkil etish metodikalaridan PPP (Present → Practice → Product) ya'ni taqdimot → vazifa → qo'llash/ijro etish va TTT (Task → Teach → Task) ya'ni 1-topshiriq → vazifa → 2-topshiriq metodlari samarali natijalar beradi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tillarini o'rgatuvchi pedagoklar zamonaviy o'qitish metodlaridan xabardor bo'lishi shart. Chunki an'anaviy o'qitish metodlari bilan chet tillarini samarali o'rgatib bo'lmaydi. Shunday ekan biz ko'tarib chiqayotgan zamonaviy yondashuvlar ham bolalarga ta'lim berishda va ularga chet tillarini samarali va tez o'rgatishda, hamda hayotda asqotadigan bilimlarni egallashda zarur bo'lgan jihatlardir. Chet tillarini o'rgatishda yana bir e'tibor qaratadigan jihat ham bor albatta bu o'quvchilarni darsga qiziqtira bilish. Fikrimcha, aynan shu darsga qiziqtirish uchun tashkil qilinadigan interaktiv o'yinlardan dars davomida (albatta mavzuga doir bo'lgan holda) ko'proq foydalanilsa, o'quvchilarga individual fikrini

bayon qilishi uchun sharoit yaratilsa bu albatta dars samaradorligini oshirardi va biz ko’zlagan maqsadga tezroq erishamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagি PQ-5117-SON qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagи 465-1-sonli "Ta’lim tòg’risida"gi qonunini.
3. Chet tillarni o’qitish bo’yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Farida Hamroyeva Samarqand davlat chet tillar instituti Yaqin sharq tillari kafedrasi o’qituvchisi. O’sarova Dilfuza Samarqand davlat chet tillar instituti Koreys tili yo’nalishi 1-kurs talabasi. (2022, iyun)
4. Kim Jung-sook and Won Jin-sook. Reflection on Korean language education as a foreign language and the search for new research methods. A collection of literary and literary writings. (2022).
5. Muminova. F.M . Ingliz tilini òqitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308).
6. Tojaliyev, A. A. (2020, December). The Role Of Innovative Activities Of Highly Qualified Personnel In The Strategic Development Of The Regions. In International scientific and current research conferences (pp. 154-156).